

MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISHDA INNOVATSIYALAR VA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR

Pozilov M.N.

Jizzax politexnika instituti professori

Karimova F.S.

Jizzax politexnika institutii katta o‘qituvchisi

Rahmatullayeva N.D.

Jizzax politexnika instituti talabasi

Qo‘chqorova O.F.

Jizzax politexnika instituti talabasi

Jizzax politexnika instituti, O‘zbekiston, Jizzax shahar

Annotatsiya: Ilg‘or xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, mutaxassislik fanlarini o‘qitishda o‘qituvchi kadrlarga yuksak talabchanlik, yosh iqtidor soxiblari bilan olib borilayotgan izchil ishlar, tabaqalashtirib o‘qitishga berilayotgan jiddiy e‘tibor - o‘qituvchilarning mehnat ta‘limini mustahkamlash, kasbga yo‘naltirish, o‘quvni didaktik vositalar bilan ta‘minlashga berilayotgan katta e‘tibor, o‘quv muassasalarning turli ishlab chiqarish korxonalari bilan mustahkam aloqalari va boshqa ibratli jihatlar asosiy rol ni o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: Oliy ta‘lim, mutaxassislik fanlari, kredit-modul tizimi, innovatsion ta‘lim texnologiyalari, Bolonya deklaratsiyasi, kredit texnologiyasi, modulli oqitish tizimi.

ИННОВАЦИИ И ПЕРЕДОВОЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ

Позиллов М.Н.

Профессор Джизакского политехнического института

Каримова Ф.С.

Старший преподаватель Джизакского политехнического института

Рахматуллаева Н.Д.

Студентка Джизакского политехнического института

Кучкарова О.Ф.

Студентка Джизакского политехнического института

Джизакский политехнический институт, Узбекистан, Джизак

Аннотация: Передовой зарубежный опыт показывает, что существует высокая потребность в педагогических кадрах при преподавании профильных предметов, последовательная работа с молодыми талантами, серьёзное внимание к дифференцированному обучению – усиление трудового воспитания учителей, ориентация на профессию, большое внимание обеспечению обучения дидактическими средствами, сотрудничество образовательных учреждений с различными производственными предприятиями прочные связи и другие образцовые аспекты играют главную роль.

Ключевые слова: Высшее образование, профильные предметы, кредитно-модульная система, инновационные образовательные технологии, Болонская декларация, кредитная технология, модульная система образования.

INNOVATIONS AND ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE IN TRAINING SPECIALISTS

Pozilov M.N.

Professor of the Jizzakh Polytechnic Institute
Karimova F.S.

Senior Lecturer at Jizzakh Polytechnic Institute
Rahmatullayeva N.D.

Student of Jizzakh Polytechnic Institute
Kuchkarova O.F.

Student of Jizzakh Polytechnic Institute

Jizzakh Polytechnic Institute, Uzbekistan, Djizak

Abstract: Advanced foreign experience shows that there is a high demand for teaching staff in teaching specialized subjects, consistent work with young talents, serious attention to differentiated learning - strengthening the work education of teachers, focus on the profession, great attention is paid to providing teaching aids, cooperation of educational institutions with various manufacturing enterprises, strong connections and other exemplary aspects play a major role.

Key words: Higher education, specialized subjects, credit-modular system, innovative educational technologies, Bologna Declaration, credit technology, modular education system.

Ma'lumki, kredit-modul tizimini talabani rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirish, mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratish ya'ni rejalashtirilgan ta'lim natijalariga erishish uchun dars mashg'ulotlarini o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish kerak bo'ladi [1-6].

Ushbu maqolada mutaxassislik fanlarini o'qitishdagi innovatsiyalar o'rganilgan, buning uchun esa rivojlangan xorijiy davlatlardagi oliy ta'lim tizimlari manba sifatida tahlil qilingan.

Amerika Qo'shma Shtatlari(AQSH)da oliy ta'lim 4 asosiy bosqichda amalga oshiriladi: 1-kichik mutaxassis - 2 yillik kollejlarda amalga oshiriladi. 2-bakalavr 4 yillik kollejlarda, 4 yillik kollej yoki dorifununni tugatgan 3-bosqichni davom ettirishi mumkin. Bu 1-2 yillik magistr maktabi(magistratura). 4-bosqich esa aspirantura va doktoranturadan iborat. Oliy ta'limda ikki yo'nalish mavjud:

1-ta'limni individuallashtirish;

2-tinglovchining mustaqil ishlashini amalga oshirish.

AQSH oliy ta'limida o'qituvchi yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Asosiy maqsad tinglovchi intellektini mashq qildirish va mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda mustaqil ta'lim va ilmiy izlanishlarga katta e'tibor beriladi.

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha AQSh jahon mamlakatlari orasida etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu mamlakatda ilmiy izlanishlar uchun ajratilgan mablag'ning 48 foizi davlat tomonidan, 50 foizini ishlab chiqarish korxonalardan undiriladi, qolganlarini oliy ta'lim muassasalarining manbalari tashkil qiladi [4].

Yaponiyada oliy ta'lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta'limi bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ham mutaxassislik fanlarini o'qitishda ta'lim uzviyligi

va uzluksizligiga ahamiyat beriladi. Oliy ta'lim tizimi quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

- To'liq sikldagi universitetlar(4 yil).
- Tezlashtirilgan universitetlar sikli(2 yil).
- Kasb ta'lim kollejlari.
- Texnika institutlari.

Oliy ta'lim muassasalari qatoriga boshlang'ich kollejlari(2 yillik o'qitish sikli), o'rta maxsus kollejlari(4 yillik o'quv sikli), texnikumlar (o'quv tizimining davomiyligi 5 yil) kiradi. Biroq, yaponiyaliklar oliy talim sifatida an'anaviy tarzda faqatgina universitet ta'limini hisoblashadi. Yaponiya oliy ta'lim tizimi o'qitish texnologiyasini samaradorligi va yuqoriligi bilan dunyoda etakchi o'rinni egallaydi.

Buyuk Britaniya oliy ta'limi bugungi kunga kelib qat'iy talablarni o'zida mujassamlashtirgan sifatli ta'lim tizimiga ega. Buyuk Britaniyada hukumat darajasida tasdiqlangan ta'lim sohasidagi davlat standartlari yoki malaka talablari mavjud emas. Ta'lim miqyosi ish beruvchilarning ehtiyojlari orqali belgilanadi. Oliy ta'lim muassasalari (universitet, kollejlari) ixtiyoriy ta'lim darajasi bo'yicha mustaqil ravishda asosiy ta'lim dasturlarini va fan dasturlarini qabul qilishadi va bunga javobgardirlar. O'quv kurslarining mazmuni hattoki turli oliy ta'lim muassasalarda bir xil mutaxassislik (ta'lim yo'nalishi) bo'yicha ish beruvchilarning talablaridan kelib chiqqan holda bir-biridan farq qilishi mumkin. O'quv dasturi mazmuni ommaga e'lon qilinadi va kelajakda talaba bo'lmoqchi bo'lgan shaxslarda ixtiyoriy ravishda taxminiy professional faoliyatiga ko'ra tayyorlov dasturlarini tanlash imkoniyati mavjud. Bunday vaziyatda ta'lim tizimini Buyuk Britaniya hukumati tomonidan nazorat qilinishi ma'lum darajada cheklanadi [5].

Fransiyada Oliy ta'lim tizimi 1984 yil 20 yanvardan kuchga kirgan "Savari" qonuniga binoan tashkil etiladi va unda 1968 yilgi Edgard Foraning asosiy

prinsiplari saqlanib qolgan. Hozirgi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bois ushbu qonunga bir necha o'zgartirishlar qilingan, mutaxassislik fanlarini modulli oqitish tizimi kiritilgan.

Fransiyada oliy ta'lim tizimiga o'rta ta'limdan yuqori bo'lgan va turli vazirliklar boshqaruvida bo'lgan barcha ta'lim muassasalari kiradi. Masalan, Fransiya milliy ta'lim, izlanishlar va texnologiyalar vazirligi "Yuqori maktablar"ning barchasini o'z nazoratiga olmaydi. Qishloq xo'jaligi, texnik va boshqa turga mansub "yuqori maktablar" qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan boshqariladi.

2001 yilda 29 ta Yevropa davlatlari ta'lim vazirlari tomonidan Bolonya deklaratsiyasining imzolanishi Yevropa ta'lim hududini yaratilishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bolonya deklaratsiyasiga kirish uchun quyidagi dastlabki talablar qo'yildi:

- Oliy o'quv yurtigacha 12 yillik ta'lim;
- Ikki bosqichli oliy ta'lim - bakalavriat va magistratura;
- o'quv jarayoni va o'qitish natijalarini baholash ECTS kredit texnologiyasi asosida tashkil etilishi.

O'quv jarayonini tashkil etishning ECTS kredit texnologiyasiga o'tishda quyidagi maqsad va vazifalar ko'zlanadi:

- xorijda o'qishni davom ettirish uchun oliy yurtini tanlashda shart-sharoit yaratish;

- O'bekistonda ta'lim olgan xujjatni xorijiy davlatlarda tan olinishini ta'minlash;

- Yevropa oliy o'quv yurtlari o'quv rejalarini o'rganish va shu asosida o'quv jarayonini takomillashtirish;

- talabalar qobiliyatini to'laroq ochilishiga va o'qitishning yuqori natijalariga erishish.

Shuni alohada ta'kidlash kerakki, kredit tizimi bilan o'qitish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta'lim texnologiyalarini - takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib bermoqda.

Ilg'or xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi kadrlarga yuksak talabchanlik, yosh iqtidor soxiblari bilan olib borilayotgan izchil ishlar, tabaqalashtirib o'qitishga berilayotgan jiddiy e'tibor, o'qituvchilarning mehnat ta'limini mustahkamlash, kasbga yo'naltirish, o'quvni didaktik vositalar bilan ta'minlashga berilayotgan katta e'tibor, o'quv muassasalarning turli ishlab chiqarish korxonalari bilan mustahkam aloqalari va boshqa ibratli jihatlar bizning Oliy ta'lim tizimimizga ham ko'chsa, oliy ta'lim yanada rivojlangan bo'lar edi. Ammo shuni ham qayd etish lozimki, har qanday xalqaro tajribani ko'r-ko'rona, o'z qadriyatlarimizni hisobga olmasdan turib, uni to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etish, uning har bir elementini chuqur tahlil qilmasdan, ilmiy asoslarga tayangan holda amalga oshirilmas ekan, kelajakda ma'lum bir salbiy holatlarning yuzaga kelishini ham unutmaslik kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

[1]. Pozilov M.N., Xamidov S.X. Kimyo fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar// Analytical Journal of Education and Development, 2023, 03(01), pp.88.

[2]. Pozilov M.N., Xamidov S.X., Karimova F.S. Kimyo fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar//“Kimyo fani va sanoatining dolzarb muammolari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, Farg'ona, 24-25-noyabr, 2023, 126 b.

[3]. Pozilov M.N., Karimova F.S. Kimyo fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar: Monografiya:-Jizzax: JizPI tipografiyasi, 2023, 101 bet.

[4]. Pozilov M.N., Karimova F.S. Yo'l muhandisligi ta'lim yunalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalar//“Farg‘ona vodiysida xavfsiz harakatlanishni tahminlash: muammo va yechimlar” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami. 1-qism. Namangan:NamMQI, 23-24-fevral, 2024, 646 b.

[5]. Позилов М.Н., Каримова Ф.С., Сунатуллаева С., Абдураимова Ў. Олий таълим тизимида назорат жараёнини ташкил этиш ва бошқаришнинг самарали йўллари//“Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў” Илимий-методикалық журнал, 2024, 2/2-сан, 213 bet.

[6]. Pozilov M.N., Djamalov O'.I. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish//“Oliy ta'limni raqamlashtirish muhitida innovatsion texnologiyalar: muammo va yechimlar-2024” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami, Jizzax, 2024, 14-15 mart, 45 b.